

TURLI GUL TIPIGA MANSUB QO‘ZILARNING GUL UZUNLIGI VA KENGLIGI BO‘ICHA OLINGAN KO‘RSATKICHILARI

Nazarova Mohira Azamatovna
Hamidova Saltanat Jura qizi

ANNOTATSIYA

Maqolada qo‘chqorlardan foydalanib qo‘ylarni juftlash natijasida olingan avlodlarda shu tipga mansub qo‘zilar salmog‘ini ko‘paytirish bo‘yicha olingan natijalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Rang, qorako‘l, rangbaranglik, qo‘zi, gul tipi, sur, yassi, qovurg‘asimon, yarim doira, o‘sikgul.

Qorako‘l qo‘y zoti dunyoning 40dan ortiq mamlakatlarda urchitiladi. Ushbu mamlakatlar qatorida Janubiy Afrika Respublikasi, Namibiya, Afg‘oniston davlatlari qorako‘lchilik eng yuqori darajada rivojlangan davlatlar hisoblanadi.

Dunyoda qorako‘l qo‘ylarini urchitish, ularni ko‘paytirish, irsiy va mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada yirik chorvachilik markazlari turli mahsuldorlik yo‘nalishlaridagi qorako‘lning foydali xo‘jalik belgilari, biologik mahsuldorlik, urchitish xususiyatlarini aniqlash; irsiy belgilarni oshirish salohiyatidan foydalanib, go‘sh, jun mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish va takomillashni taqazo etmoqda.

Ko‘p yillar davomida qorako‘l qo‘ylarini yarim doira qalamgul tipi bo‘yicha seleksiyalash ushbu muammoning tezkor echimini ta‘minlay olmaydi. Oxirgi yillarda bozor kon‘yunkturasining qorako‘l mahsuloti assortimentiga bo‘lgan talabning o‘zgarishi yassi va qovurg‘asimon guruhlaridagi qorako‘l terilari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirishni talab etmoqda. SHu bilan birga ta‘kidlash joizki, etishtirilayotgan bunday qorako‘l terilari nafaqat sifatliy, balkim miqdoriy jihatdan ham bozor, ayniqsa tashki bozor talabini qondira olmayapti, ushbu tiplardagi qorako‘l qo‘ylarining yuqori mahsuldor genotiplari respublika miqyosida etarli emas.

SHu nuqtai nazardan qorako‘lchilikda sur rangli yassigul tipli qorako‘l qo‘ylarining nasliy va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish, undan sohada qo‘ylarning naslini yaxshilash va sifatli mahsulot etishtirishni ko‘paytirish yo‘nalishlarida samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash dolzarb va muhim muammolardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda bajarilgan dissertatsiya ishi respublika Prezidenti qarorida belgilangan vazifalarning echimini topishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, qo'ylarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, irsiyatini takomillashtirishda gullarning kengligi o'ya muhim seleksion belgilardan biri hisoblanadi. O'rta kenglikdagi gullarga ega bo'lgan qo'ylarni tanlash va shu belgi bo'yicha ularni juftlash samarali bo'lib, muhim seleksion belgilarning namoyon bo'lishini maksimalashtiradi.

Gul sifati ko'rsatkichlari

Bu yo'nalishda tanlash ishlari, asosan gullarning tip va shakllari, uzunligi, eni, mustahkamligi, joylashish rasmi kabi muhim seleksion belgilar bo'yicha olib boriladi. Ushbu ko'rsatkichlar qanchalik yuqori darajada namoyon bo'lsa qo'ylarning nasliy qimmatliligi shunchalik ortadi. SHu nuqtai nazardan tadqiqotlarda qo'zilarida ushbu belgilarning namoyon bo'lish darajalari o'rganildi.

Gullarning uzunligi va kengligi (eni). Ushbu ko'rsatkichlar barcha rangli qorako'l qo'ylarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Gullarning uzun va o'rta kenglikda bo'lishi (5-9 mm) qo'ylarning qimmatliligini oshiradi. Ushbu ko'rsatkichlarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, turli gul tipiga mansub qo'zilar gullarning uzunligi va kengligi bo'yicha ma'lum farqlanish va o'zgaruvchanlikka ega. Gullarning uzunligi bo'yicha olingan ma'lumotlar ko'rsatadiki, uzun gulli avlodlar chiqimi bo'yicha qovurg'asimon tipli qo'zilarning yuqori ($62,5 \pm 6,99$ %) ko'rsatkichga ega bo'lib, bu ko'rsatkich yassi tipli qo'zilarida ham etarli darajada yuqori ($57,1 \pm 6,23$) ekanligi aniqlandi. YArim doira qalamgul tipli qo'zilarida uning $52,3 \pm 5,97$ foizni tashkil etganligi qayd etildi.

1-jadval

Turli gul tipiga mansub qo'zilarning gul uzunligi va kengligi bo'yicha taqsimlanishi

Gul tipi	n	Gul uzunligi, % ($X \pm S_x$)			Gul kengligi, % ($X \pm S_x$)		
		uzun	o'rta uzun	kalta	mayda	o'rta	katta
Yassi	50	$55,1 \pm 6,21$	$28,6 \pm 5,69$	$14,3 \pm 4,41$	-	$61,4 \pm 5,66^x$	$28,4 \pm 5,65$
YArim doira qalamgul	60	$50,3 \pm 5,87$	$31,4 \pm 5,62$	$14,3 \pm 4,18$	$12,8 \pm 3,96$	$72,4 \pm 5,41^x$	$14,9 \pm 4,35$
Qovurg'asimon	50	$52,5 \pm 6,89$	$24,1 \pm 6,74$	$11,4 \pm 4,32$	-	$74,1 \pm 6,26^x$	$26,2 \pm 6,25$
O'sikgul	35	-	$44,9 \pm 7,44$	$49,1 \pm 7,35$	$16,8 \pm 5,68$	$48,6 \pm 7,46$	$34,4 \pm 7,12$

X- $R < 0,05$

Bu borada etarli nasliy qimmatlikni ko'rsatuvchi gullarning o'rta uzunligiga ega qo'zilar salmog'i yassi tipida $28,4 \pm 5,65$ foizni, yarim doira qalamgul tipida $34,4 \pm 7,12$ foizni, qovurg'asimon tipida $27,1 \pm 6,84$ foizni tashkil etganligi aniqlandi. O'siqgul tipli qo'zilar asosan kalta ($44,9 \pm 7,44$ %) va o'rta uzunlikdagi ($48,6 \pm 7,46$ %) gullar bilan xarakterlanishi kuzatildi. O'rta uzunlikdagi gullar bo'yicha birinchi uch tipdagi qo'zilar ko'rsatkichining o'siqgul tipi ko'rsatkichidan statistik ishonchli ($R < 0,05$) ustunligi qayd etildi.

Zotdorlikni xarakterlovchi muhim seleksion ko'rsatkichlardan biri hisoblangan gullarning kengligini o'rganish natijalari yassi va qovurg'asimon tiplariga gullarning o'rta ($55,1 - 6,89$) va katta ($26,2 \pm 6,25$ %) kengligi, yarim doira qalamgul tipiga mayda ($44,9 \pm 7,44$ %) va o'rta ($74,1 \pm 6,26$ %) kengligi, o'siqgul tipiga qisman mayda ($16,8 \pm 5,68$ %), asosan o'rta ($48,6 \pm 7,46$ %) va katta ($34,4 \pm 7,12$ %) kengligi xosligini ko'rsatdi. O'rta kenglikdagi gullar bo'yicha tahlillar bu ko'rsatkichning yarim doira qalamgul tipida 5-7 millimetrni, yassi va qovurg'asimon tiplarida 7-9 millimetrni, o'siqgul tipida esa 6-9 millimetrni tashkil etganligini ko'rsatdiki, bu borada yarim doira qalamgul tipi eng optimal, qolgan tiplar esa nisbatan yirikroq gullar bilan xarakterlanishi aniqlandi.

SHu nuqtai nazardan aytish mumkinki, yassi va qovurg'asimon tipli qo'ylarni seleksiyalashda gullarning kengligini biroz ensizlantirishga, ya'ni yarim doira qalamgul tipi ko'rsatkichi darajasiga etkazishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Olingan natijalarga asoslanib ta'kidlash lozimki, yassi tipiga mansub qo'zilar umuman olganda mustahkam gullar bilan xarakterlanadi (80,7%). Ushbu ko'rsatkich yarim doira qalamgul tipida 83,3 foizni, qovurg'asimon tipida esa 87,5 foizni tashkil etib, ularning o'siqgul tipi ko'rsatkichidan ustunligi statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli ($X - R < 0,05$; 0,001). O'siqgul tipi esa asosan bo'sh gullar bilan xarakterlanishi kuzatildi. SHu nuqtai nazardan ushbu yo'nalishda yassi tipli qo'ylar bilan seleksiya ishlarini olib borishda avlodlarda o'ta mustahkam gulli qo'zilar chiqimini ko'paytirishga e'tibor qaratish lozim. Bunday zaruratni jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. Bu holatda ular yarim doira qalamgul tipli qo'zilarga nisbatan 12,5 %, qovurg'asimon tipli qo'zilarga nisbatan esa 19,5% ($R < 0,05$) past ko'rsatkichga ega bo'lgan.

YAssi tipli sur rangli qorako'l qo'ylarini seleksiyalash xususiyatlarini o'rganish asosida ta'kidlash mumkinki, ushbu tipdagi qo'ylar zotning eng qimmatli guruhlari qatoriga kiradi. Buni ularda qator muhim seleksion belgilarning namoyon bo'lish darajalarining yuqoriligi bilan izohlash mumkin. SHu bilan bir qatorda ushbu tipli qo'ylarni seleksiyalashda gullarning mustahkamlik darajasini oshirish,

konstitutsiyasini mustahkamlash va tirik vazn ko'rsatkichini ko'tarishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. «Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4420 sonli qarori. Toshkent. 2019 yil 16 avgust.
2. Gaziev A. i dr. Nasleduemost vajnykh smushkovykh priznakov karakulskix ovets. «Qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish va qayta ishlashning ilmiy – amaliy asoslari» mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. Buxoro “Durdona” nashriyoti. 2019.- 37-43 bet.
3. Gaziev A. Seleksiya bosqichlariga bog'liq holda qorako'l qo'ylari irsiyatining mustahkamlanish darajasi. “CHO'l – yaylov chorvachiligini modernizatsiyalash muammolari” Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2012.- 70-73 bet.
4. Mamatov B. S., Gaziev A. Sur qorako'l qo'zilar jun – tola uzunligining ota – onalar gul tipi bilan bog'liqligi. “CHO'l – yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho'llanishning oldini olishning ilmiy amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2019. 43-44 bet.
5. YU. S. Yusupov S. YU., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Nazarova M. Qorako'l qo'ylar xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi. «CHO'l – yaylov chorvachiligi va ozuqa etishtirish muammolari» QCHEITI nstitutning 85 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand sh. 2015 y. 222 bet.